

“SABBA’I SAYYOR” ASARIDA QO‘LYOZMA VA NASHR TAFOVUTLARI

Ochilova Sarvinoz Husan qizi

ToshDO‘TAU, O‘FF.

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11523503>

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.Navoiy ijodi haqida qisqacha ma’lumot berildi. Matnshunoslikdagi asliyat va tabdil muammolari masalasiga e’tibor qaratildi va “Sabba’i sayyor” asarining qo‘lyozma nusxasi va nashr varianti orasidagi tafovutlar qayt etildi.

Kalit so‘zlar. Alisher Navoiy, asl matn, nusxa, tabdil, “Sabba’i sayyor”.

MANUSCRIPT AND PUBLICATION DIFFERENCES IN "SABBA'I SAYYOR".

Abstract. This article provides brief information about A. Navoi's work. Attention was paid to the problems of originality and translation in textual studies, and the differences between the manuscript copy of the work "Sabba'i Sayyor" and the version of the publication were returned.

Keywords: Alisher Navoi, original text, copy, translation, "Sabba'i Sayor".

РАЗЛИЧИЯ В РУКОПИСИ И ПУБЛИКАЦИЯХ «САББАИ САЙОР».

Аннотация. В статье представлены краткие сведения о творчестве А. Навои. Уделялось внимание проблемам оригинальности и перевода в текстологии, а также были возвращены различия между рукописным экземпляром произведения «Саббаи Сайёр» и версией издания.

Ключевые слова: Алишер Навои, оригинальный текст, копия, перевод, «Саббаи Сайор».

Hazrat Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevral oyida Hirotda tavallud topgan. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin” — din-diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “mir” amir demakdir.

Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan ekan. Navoiy yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lib voyaga yetganda nafaqat ilmda, balki davlat ishlarida ham o‘zining buyuk hissasini qo‘shgan. Alisher Navoiy 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir bo‘lib ishlaydi. 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro uni o‘ziga g‘oyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni nihoyatda qadrlar edi. To‘g‘ri, Bayqaro va Navoiy

o‘rtasiga uchinchi kishi aralashgan, sovuqchilik tushgan paytlar ham bo‘ldi, lekin o‘z davrining ikki atoqli arbobi hamkorligi juda ko‘p sinovlardan muvaffaqiyat bilan o‘tib, avlodlarga o‘rnak bo‘ldi.

Alisher Navoiy she‘rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she‘r yozishni to‘xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag‘bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o‘zi unga rahnamolik qildi. Ulug‘ shoirning ilk she‘riy devonini muxlislari tuzgan bo‘lsalar, birinchi devoni — “Badoye ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko‘ra o‘zi kitob qildi. 1485–1486-yillarda ikkinchi devon — “Navodir un-nihoya” (“Nihoyasiz nodirliklar”) maydonga keldi.

Alisher Navoiy 1481–1482-yillarda “Vaqfiya” asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ishning sarf-u xarajatini ta‘min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) dan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan “Xamsa” yaratish edi. Nizomiyning “Panj ganj” nomi bilan tarixga kirgan “Xamsa”si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinas”), “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Hayf paykar” (“Yetti go‘zal”), “Iskandarnoma”. Yuz yildan keyin unga Xusrav Dehlaviy (1253–1325) javob qildi. U o‘z dostonlarini “Matla ul-anvor” (“Nurlar boshlanishi”), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”), “Oynayi Iskandariy” (Iskandar oyinasi) deb ataladi. Lekin bular hammasi forsiy tilda yozildi. Ulardan forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo‘ldilar. O‘z xalqining shunday xazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynadi.

Navoiy maslahatga ustozi Abdurahmon Jomiy huzuriga boradi. Jomiy Navoiyni bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o‘z “Xamsa”sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida tugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba “Xamsa” yaratiladi. Olimu fuzalo — barcha bu hodisani zo‘r olqish bilan kutib oldilar. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa” asari (1483–1485)dir, shoir birinchilardan bo‘lib, turkiy tilda to‘liq “Xamsa” yaratdi va turkiy tilda shunday ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Ushbu to‘plamni Nizomiy Ganjaviyning “Panj Ganj” (“Besh xazina”) asariga havas sifatida yozilganligini o‘quvchilarga anglatmoq maqsadida “Xamsa”ning kirish qismida:

“Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.” deya ta‘kid etadi.

“Xamsa” tarkibiga “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabba‘i sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi.

“Hayrat ul-abror”da hamd, munojot, na’t, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo‘lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma’rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq, taqvo yo‘lida ulusdan o‘ta olmaganini anglatish bilan o‘zining adolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi.

“Farhod va Shirin”da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o‘sha sharaflil nomning himoyasi orqali ekanini uqdiradi. Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o‘zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan.

“Layli va Mjnun” dostonida arab ertaklari orqali ma’lum syujet o‘zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi.

“Xamsa” tarkibidagi “Sabba’i sayyor” va “Saddi Iskandariy”da shohlik bilan bog‘liq masalalarni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Bu dostonlar xamsanavislik an’anasida o‘zining ijtimoiy-siyosiy xarakteri va originalligi bilan ajralib turadi.

O‘RFASHI qo‘lyozmalar fondida XV–XX asrlarda ko‘chirilgan **166 qo‘lyozma** saqlanadi. Ulardan 84 tasida beshlikning hamma dostonlari berilgan.

“Xamsa” haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko‘prulu, A.S.Levend, K. Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliev; o‘zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, Sodir Erkinov, S.Nazrullaeva, A.Abdug‘afurov, M.Hakimov, S.Hasanov v.b. ishlari ma’lum.

U o‘z davrida bir qancha xattot va kotiblar tomonidan ko‘chirilgan. Ko‘p asrlardan keyin ham Navoiy asarlari o‘z qadrini yo‘qotmadi. Mustaqillikdan so‘ng yurtimiz merosi qayta o‘rganila boshladi. Shu jumladan, Alisher Navoiy asarlari boshqa ijodkorlar asarlaridan bir necha marotaba kengroq o‘rganib tabdil qilindi va qayta nashrga berildi. Biroq bu asarlarning soni oshishi bilan undagi ba’zi kamchiliklar ham orta bordi. Navoiy asarlarini o‘rganishda va uni qayta nashrga tayyorlashda bir qator grammatik, leksik va morfologik xatoliklarni yuzaga keltirdi. Tayyorlangan nashrlarda uchraydigan bu va shunga o‘xshash ba’zi texnik xatolar ham asar mazmunining buzilishiga sabab bo‘lib qoldi. Shu boisdan muayyan asarning tabdilini amalga oshirish va nashr etishda bir qator muammoli vaziyatlarga e’tibor berish talab etiladi. Asl matn tabdilini yaratish jarayonida asl nusxani aniqlash muhimdir. Bu esa nusxalar ko‘p bo‘lganda biroz qiyinchilikni tug‘diradi, chunki ba’zi asarlarda soxtalashtirilgan nusxalar ham uchrab turadi. Tabdil jarayonida matnning mazmunini saqlash, madaniy va tarixiy kontekstga e’tibor berish, til va uslubini chuqur

o'rganish talab etiladi. Asliyatni aniqlash va tabdil qilish vaqtida yuqoridagi muammolarni hal qilish orqali ilmiy va adabiy asarlarning aniq va ishonchli variantlarini yaratish mumkin. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tajribali mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy metodlardan foydalanish zarur. Matnning tabdili mukammal qilingandan keyin uni nashrga beriladi. Nashriyotda tayyorlanayotgan asar matnini terishda ba'zan texnik xatolar bo'lishi mumkin. Bu xatolarning ayrimlari asar mazmuniga jiddiy zarar yetkazadi, shu boisdan terilgan matn bir necha marotaba tabdil bilan qiyoslab tekshirib chiqilishi kerak bo'ladi. Muvaffaqiyatli tekshiruvdan o'tgan matn nashr etiladi va keng ommaga taqdim qilinadi. Quyida "Sabba'i sayyor" asarining Bodleian kutubxonasidagi qo'lyozma nusxasi va www.ziyouz.com kutubxonasidagi asarning nazmiy nashri tafovutlari qiyoslanadi:



Qo'lyozmadagi "O'zligidin dog'i asar topmay, Bordi o'z din dog'i xabar topmay" baytidagi "bordi" so'zi "balki" tarzida nashr etilgan va bu bayt ma'nosining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu qo'lyozma sahifasidagi "Qolmadi to'rt javhar, olti araz, Olti-yu, to'rt din bir anga g'araz" baytida "qolmadi" so'zining "qolmayin" shaklidagi morfologik o'zgartirilishi e'tiborni tortadi.



Qo‘lyozmadagi “*Bo‘yla tuxmatkim, ishq uchun Bahrom, Yasadi yetti qasr surgali kom*” baytidagi “*ishq*” so‘zi nashrda “*aysh*” deyilgan. Bu so‘z o‘zgarishi bilan baytdan anglashiladigan asl ma’noga putur yetgan. “*Har biri husn-u, lutfi g‘oyatsiz*” misrasidagi *husn* va *lutf* so‘zlari o‘rni nashrda almashgan holda yozilgan. Manbadagi “*Har bir o‘z vaqtida faridi jahon*” misrasidagi “*jahon*” so‘zi nashrdagi variantda “*zamon*” so‘ziga almashganini ko‘rish mumkin. Ma’no o‘zgarishiga sabab bo‘lgan yana bir so‘zdagi qo‘shimchalar almashishi holatiga quyidagi misrani olishimiz mumkin: “*Yoshurun ko‘nglidin base ma’ni*” qo‘lyozmada, “*Yoshunur ko‘nglidin base ma’ni*” nashrda ifodalandi.

REFERENCES

1. Bodleian Library MS.Elliott28733333.pdf
2. www.ziyouz.com kutubxona.Alisher Navoiy.Sabba’i sayyor
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy